

**Ikromova Sh.R.**

Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

---

## BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta’lim jarayonining mazmuni va sifati axborotlashgan jamiyatning dolzarb masalalari va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilyotgani, o‘quv mashg‘ulotlarining rangba-rang tashkil qilinishi va u orqali o‘quvchilarning turli bilim va ko‘nikmalarni egallab olishlari muhim ahamiyat kasb etishi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** axborot-kommunikatsiya, sinf, maktab ta’limi, zamonaviy, kompyuter, elektron darslik, dastur, vosita, fan, texnologik xarita.

---

**KIRISH:** Mamlakatimizda yil sayin rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim tizimiga ham jadallik bilan kirib borayotganligi, ta’lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko‘tarish uchun xizmat qilayotganligi barchamizga ma’lum.

Bugungi kunda ta’lim jarayonining mazmuni va sifati axborotlashgan jamiyatning dolzarb masalalari va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoxda. Olib borilayotgan bu islohotlar o‘qituvchilar va o‘quvchilar oldiga katta talablar qo‘ymoqda, bu talablarning eng asosiyisidarsning samaradorligi, uning sifatliligini oshirish hamda maktablardagi turli xil o‘quv mashg‘ulotlarining tashkil qilinishi va u orqali o‘quvchilarning turli bilim va ko‘nikmalarni egallab olishlaridir. Ta’lim jarayonini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda, ta’lim-tarbiya jarayonida axborot texnologiyalarini joriy etish, o‘quvchilarni kasbhunarga va zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga bo‘lgan qiziqishini oshirish masalasi ommalashmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLИ:** Axbotot texnologiyalarini qo‘llash-har bir o‘qituvchi barcha o‘quvchilar ko‘zda tutilgandek o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishini ta’minlaydi. Bunda har bir o‘quvchi o‘z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg‘ulotni oldindan ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtiradi. Pedagogik va psixologik tadqiqotlarga ko‘ra inson ongi ma’lumotlarning 90% ni ko‘rish, 9% ni eshitish, 1% ni esa his qilish orqali qabul qilar ekan. Bundan kelib chiqqan holda shu narsa ta’kidlanmoqdaki, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta’sir etadi.

Hozirda ta’lim muassasalari zamonaviy kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu pedagoglarni o‘z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi pedagogni o‘quv jarayonida ta’lim vositalari asosida faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va rolini o‘zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallashuviga olib keladi.

**NATIJALAR:** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yaratilgan elektron darslik, qo‘llanma va taqdimotlardan o‘quv jarayonida keng foydalanilmoqda.

Ona tili, o‘qish, matematika va tabiatshunoslik fanlarini o‘qitishda axborot texnologiyalari yordamida turli xil ko‘rgazmali slaydlardan dars jarayonida foydalanish mumkin.

Masalan:

-o‘qish va ona tili fanlarida katta ekranda harflarni, so‘zлarni bir-biriga qo‘shib o‘qish, so‘ngra kichik ertak va hikoyalarni o‘qish, harflarni to‘g‘ri va chiroyli yozish,

-matematika fanida oddiy amallardan foydalanib, slaydlar yordamida masalalar yechish, turli xil hisob–kitobli o‘yinlar tashkil qilish,

-tabiatshunoslik fanidan tabiatdagi hodisalar haqidagi sodda slaydlar yordamida tushunchalar berish mumkin.

Elektron darslik, qo‘llanma va taqdimotlardan o‘quv jarayonida foydalanishda bir qator muammolar ham kuzatilmogda;

1.O‘qituvchilar kompyuter savodxonligining yetarli darajada emasligi.

2.Maktablarda kompyuter va proyektorlarning yetishmasligi.

3.Dars jarayonida kompyuterdan me’yorida foydalanmaslik.

Bu muammolarni hal etish uchun avvalo boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari axborot texnologiyalari vositalari bilan ishlash uchun quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim:

-ishchi dastur va texnologik xaritalar tuzish, tushunmadim

-ma’ruza matnlari va amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘liq topshiriqlarni tayyorlash,

-metodik ko‘rsatmalar va nazorat savollarini tuzish,

-o‘zlashtirish natijalarini tahlil qilish,

-ma’ruza matnlarini tahrirlash,

-har bir mavzu bo‘yicha dinamik ko‘rinishda aks etuvchi jarayonlarning animatsiyalarini tasavvur qilish.

**MUHOKAMA:** O‘qituvchilar kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish bilan birga quyidagilarni amaliyatda qo‘llay olishi lozim:

Yangi o‘quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanish;

-internet, o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida darslarni tashkil etishi;

-darsga metodik tayyorlanish, qo‘srimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirish, didaktik materiallarni tayyorlash;

-kompyuter texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalanish malakalari.

Elektron taqdimot-darsda slaydlardan ko‘rgazmali material sifatida foydalanish o‘qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi. O‘quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar asosida o‘tilayotgan materialning berilishi mavzuni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini yengillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o‘quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slaydlarga o‘quvchilar o‘zlarini munosabatini bildirishi, uni tahlil qilishi mumkin.

Bu orqali o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘ladilar:

- grafika axborotlarni matn shakliga keltirish yoki aksincha;
- muhokama etilayotgan mavzu bo‘yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
- o‘zining o‘quv biluv faoliyatini rejashtirish;

Boshlang‘ich ta’lim o‘quv darslarida axborot majmui-ma’lumotnomalar, ensiklopediyalar, virtual kutubxonalar, geografik xaritalar, rasmlar, chizmalar, animatsiyalar, matnlar, tasviriy axborotning statistik va dinamik ifodalari, ovozli obrazlar (yozilgan ovoz, musiqa va boshqalar) foydalanish mumkin.

Bugungi kun o‘qituvchilariga qo‘yilayotgan talab, dars jarayonida axborot texnologiyalarni qo‘llay olishi, o‘quvchilarni kompyuterdan erkin foydalanishga, zamonaviy bilimlarni puxta egallashga, ma’nан yetuk shaxs bo‘lib yetishiga o‘rgatishdan iborat.

**XULOSA:** Xulosa qilib aytganda o‘qituvchi axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri va samarali foydalansa, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi, bilim olishga bo‘lgan ishtiyogi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortib, mustaqil fikri rivojlana boradi. O‘qituvchi esa darsda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga oson erishadi. Faqatgina o‘quv jarayonida axborot texnologiyalari darsning asosiy tayanchi emas, balki bolaga yangi ma‘lumotlarni, tushunchalarni osonlik bilan yetkazib berish hamda esda saqlashiga yordam beruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. O‘qituvchi esa darsning asosiy boshqaruvchisidir.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

- 1.“Multimedia ilovalarining turlari”<http://tami.uz/>
- 2.Olimov Q.T. Maxsus fanlar bo‘yicha elektron darsliklarni yaratishning uslubiy asoslari. Kasb-hunar ta‘limi №2.2004y.
- 3.Rasulov O. Zamonaviy elektron darsliklarning didaktik xususiyatlari Kasb hunar ta‘limi. №5.2005y.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekiston ning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta‘limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №PQ-3931-soni Qarori.

6.Yo‘ldashev J.G.,Usmonov S.A.Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish.–T:Fan va texnologiya, 2008.

7.[www.aim.uz](http://www.aim.uz)

8.[www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

9.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)